

**O`ZBEKISTON YOSHLARNING JAMIYATGA IJTIMOIYLASHUV
JARAYONLARI.**

**PROCESSES OF SOCIALIZATION OF UZBEKISTAN YOUNG PEOPLE TO
THE SOCIETY**

**ПРОЦЕССЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА В
ОБЩЕСТВЕ.**

Aktimirov Sunnatulo Damir oғli

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo ‘rg ‘on filiali Ijtimoiy ish
ta ’lim yo ‘nalishi talabasi; e-mail: aktimirovsunnat@gmail.com*

Ilmiy raxbar:Abbosova Maftuna Subxonovna

*Raqamli tehnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasи o ‘qituvchisi, P.H.D
e-mail: maftuna08011993@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shaxsning muayyan bir jamiyatdagi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvi va o’zini alohida olingan shaxs sifatida tasavvur qilishi ijtimoiylashuv jarayonining asosiy mazmunini tashkil qilishi, Shaxsning ijtimoiylashuvi - bu shaxsning tug`ilgandan so`ng mansub bo`lgan madaniyatning asosiy elementlarini rivojlantirish orqali jamiyatga qo`shilishi, keyinchalik ijtimoiy "men"ning shakllanishi, Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini bir ikkiga bo`lib o`rganishimiz mumkin: Birlamchi - oila a'zolari, do'stlari va boshqalar kabi bir-biriga yaxshi tanish bo`lgan odamlarning kichik jamoalarida tashkil etilayotganligi va Alovida ta'kidlash joiz, «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtomoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi sa’y-harakatlarni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi haqida qizqacha ma`lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, jamiyat, ijtimoiylashuv, davlat, siyosiy jarayon, islohatlar, ommaviy axborot vositalari, qonun, besh muhum tashabbus.

Annotation: In this article, adaptation of a person to social conditions in a certain society and imagining himself as a separate person is the main content of the socialization process. joining the society, later the formation of the social "I", we can study the socialization process of young people in two parts: Primary - in small groups of people who know each other well, such as family members, friends, etc. is being organized and it should be noted separately, "On the five priority directions of the development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021, Shavkat Mirziyoyev organized efforts in the social, spiritual and educational spheres on a systematic basis Brief information is provided on the promotion of 5 important initiatives to achieve.

Key words: Youth, society, socialization, state, political process, reforms, mass media, law, five important initiatives.

Аннотация: В данной статье адаптация человека к социальным условиям в определенном обществе и представление себя как отдельной личности является основным содержанием процесса социализации. Вступая в социум, позднее формируя социальное «Я», мы можем изучать процесс социализации молодежи в двух частях: Первичный – в небольших группах людей, хорошо знающих друг друга, таких как члены семьи, друзья и т. д. организуется и следует отметить отдельно: «По пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах Шавкат Мирзиёев на системной основе организовал работу в социальной, духовной и образовательной сферах. Краткая информация представлена на продвижение 5 важных инициатив для достижения».

Ключевые слова: Молодежь, общество, социализация, государство, политический процесс, реформы, средства массовой информации, закон, пять важных инициатив.

KIRISH

Ijtimoiylashuv shunday jarayonki, unda ojiz chaqaloq o'zi tug'ilgan madaniyatning mohiyatini tushunadigan, o'zizni-o'zi anglay oladigan aqlli mavjudotga aylanib boradi.¹ Bu har bir odam ijtimoiy mavjudot hisoblanib, jamiyat bilangina rivojlanishini isbotlaydi. XX-XXI asr insoniyat tarixida eng ko'p texnologiyalar ixtiro qilinga davr hisoblanib, bu texnologiyalar ham shaxs ijtimoiylashuvida o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiylashuvning bosqichlari, unga ta'sir qiluvchi omillar, agentlar va muassasalarni o'rganish doim muhim bo'lib kelgan, bu ayniqsa yildan-yilga yangilanayotgan hozirgi jamiyatimiz uchun muhim. Ijtimoiylashuv – bu individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib boorish jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, bir tomonidan shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta'sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomonidan esa, ularni hayotda o'z xulq-atvorlari va munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro'y beradi. Chunki, individ shaxs bo'lishga ehtiyoj va zaruriyat bordir. Shuning uchun ham bola tug'ilib, ijtimoiy muhitga qo'shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo'lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin.

„Birorta ham inson o'ziga boshqa insonlarning o'tkazadigan ta'sirisiz mavjud bo'la olmaydiva bu uning xulq-atvorida turli hayotiy davrlarda turlicha ifodalanadi.”²

¹ Entoni Giddens - Sotsioalogiy „Sharq“ nashriyoti. Toshkent – 2002. 81- bet

² Smezler N. Sotsiologiya. –M., 1994. 215-b

Albatta, muvaffaqiyatsiz ijtimoiylashuv, ommaviy axborot vositalari, televizor yoki virtual olam ko'rinishlari internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn video o'yinlar tomonidan bolaga juda kuchli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. „Bir necha yil oldingi tadqiqot tatijasiga ko'ra britaniyalik bolalar bir yil davomida teleekran oldida maktabda o'tkazilgan yuz kunga teng vaqtlarini o'tkazar ekanlar. Kattalar ham bunga tahminan shuncha vaqt sarflaydilar.”³

Shaxsning muayyan bir jamiyatdagi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvi va o'zini alohida olingan shaxs sifatida tasavvur qilishi ijtimoiylashuv jarayonining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ijtimoiylashuv shaxsning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir, u ayniqla bolalik va o'smirlik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi, chunki aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Agar shu davrda maqbul me'yorlarga rioya qilinmasa, bolalarning muvafaqqiyatlari ijtimoiylashuviga erishib bo'lmaydi. Har bir inson bolasi yashayotgan jamiyatiga moslashishi kerak. Aks holda u hayotda yashashga qiynaladi, hattoki vafot etishi ham mumkin. Shuning uchun ham ijtimoiylashuv jarayoni o'ta muhim jarayon hisoblanadi.

ASOSIY QISM.

Shaxsning ijtimoiylashuvi - bu shaxsning tug'ilgandan so'ng mansub bo'lgan madaniyatning asosiy elementlarini rivojlantirish orqali jamiyatga qo'shilishi, keyinchalik ijtimoiy "men"ning shakllanishi. Shuni ta'kidlash joizki, insonning o'zgarishi bevosita o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarish orqali umumiylar manfaatlar uchun yashash va mehnat qilish istagidan boshlanadi. Busiz ma'naviy boylikni avloddan avlodga o'tkazib bo'lmaydi. Odam ajdodlarining bebafo tajribasi va yutuqlariga tayangan holda yangi narsalarni yaratish va yaratishga aynan an'analar va tarix tufayli erishadi.

Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini bir ikkiga bo'lib o'rganishimiz mumkin: Birlamchi - oila a'zolari, do'stlari va boshqalar kabi bir-biriga yaxshi tanish bo'lgan odamlarning kichik jamoalarida tashkil etiladi. Bu toifa bilan muloqot shaxsning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ikkinchi darajali - ishbilarmonlik munosabatlari sohasida amalga oshiriladi.

Shaxsning birlamchi sotsializatsiyasi eng muhim hisoblanadi, chunki aynan erta bolalik davrida shaxsda o'z-o'zini anglash shakllanadi va jamiyatdagi xatti-harakatlarning asosiy munosabatlari shakllanadi. Madaniy qadriyatlarning dastlabki namunasi va namunasi bo'lib xizmat qiladigan ota-onalardir. Bundan tashqari, bu jarayonga ta'lim muassasalari, maktablar va boshqalar ulangan. Yoshlarning jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonida juda ko'p omillarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Misol qilib aytadigan bo'ldak, oilada,bog'chada,maktabda, oliy ta'lim muassasalarida,umuman olganda inson tug'ilibdiki jamiyatda moslashadi va

³ Fejos P. Ethnographi of Yagua.N.Y., 1979. 129-b

ijtimoiylashadi. Bu ijtimoiylashuv jarayonida yoshlarning tarbiyasiga aynan ommaviy axborot vositalarining ahamiyati katta.

Barchamizga ma'lumki insoniyat paydo bo'lganidan beri insonlar axborot olish, tarqarish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Vaholanki bu jarayon o'tmishda ancha sodda ko'rinishga ega edi. Kishilik jamiyatni rivojlanib, insoniyat taraqqiy etgani sari bu jarayon ancha murakkablashdi, axborotning jamiyatdagi o'rni va roli oshdi. Hatto XXI asrning "Axborot texnologiyalar asri" deb nom olgani ham bejizga emas. Bugun yurtimizda axborot sohasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborot va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi hamda erkinligini o'zida mujassam ertgan bo'lib, bu yurtimizda demokratik jamiyat asoslarini barpo qilishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa tamal toshi hisoblanadi⁴." deb aytib o'tadi.

Hozirgi kunda aynan O'zbekiston Respublikasida yoshlarning jamiyatda ijobiy ijtimoiylashishlari uchun mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan, yoshlarga oid qarorlar, farmonlar va farmoishlar ishlab chiqmoqdalar. Mamlakatimiz yoshlarining butun dunyo yoshlari bilan bemalol raqobatlashishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqdalar.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun sharoitlar yaratishdan iborat.⁵

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyevning

Alohida ta'kidlash joiz, «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da ham bu masala alohida o'z aksini topdi. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

birinchidan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

ikkinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

⁴ ЭРКИН ВА ФАРОВОН, ДЕМОКРАТИК ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТИНИ БИРГАЛИҚДА БАРПО ЭТАМИЗ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВ "ЎЗБЕКИСТОН"

⁵ *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning*

BMT Bosh Assambleyasining

72-sessiyasida so'zlagan nutqidan

uchinchidan, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalg etish.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtomoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va ba yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Davlat rahbarining bu ezgu g'oyasi O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloch yozdi.

O'zbekiston yoshlarining ijtimoiylashuvida ma'naviy-ma'rifiy sohalarga alohida e'tabor berilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Aynan yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida boshqa mamlakatlar bilan tajribalaridan foydalangan holda ishlar amalga oshirib borsak ham yoshlarning zamon bilan hamnafas rivojlanishlariga ham ijobiy ta'sir korsatadi.

5 ta muhim tasabbusning Ikkinchi tashabbusi- yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.bunga binoan:

Yaqinda mamlakatimizning sport hayotida quvonchli yangilik bo'ldi. Osiyo Olimpiya Kengashining qaroriga ko'ra, 2025 yilda Yoshlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlariga Toshkent shahri mezonlik qilishi belgilandi. Bu musobaqada Osiyo qit'asidagi 45 ta davlat yoshlari 20 ga yaqin sport turi bo'yicha o'zaro bellashadi.

– Bunday nufuzli xalqaro sport o'yinlarining O'zbekiston tarixida birinchi marotaba o'tkazilishi barchamizga faxr-iftixor bag'ishlaydi, albatta. Shu bilan birga, u bizga g'oyat katta mas'uliyat ham yuklaydi. Mana, sizlar kabi navqiron va azamat yoshlarning o'z kuch va mahoratini ko'rsatib, Vatanimiz bayrog'ini yuksakka ko'tarishlari uchun yana bir zo'r imkoniyat, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak hozirgi kunda boshqa mamlakatlar singari O`zbekistonda ham yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoi bo`yicha qilinayotgan ishlar keskin ortib bormoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma`naviy-ma`rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo`yicha o`tkazilgan videoselektor yig`ilishida ma`naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratilgani ham bejiz emas, albatta. «Biz yangi O`zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma`naviyat»⁶. Zero, diyorimiz o`zining milliy qadriyatlari, madaniyati rivojlangan yuksak ma`naviyati bilan dunyo e'tibori va e'tirofida bo`lib kelgan.⁶

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Entoni Giddens - Sotsioalogiy „Sharq” nashriyoti. Toshkent – 2002. 81- bet
2. Smezler N. Sotsiologiya. –M., 1994. 215-b
3. Fejos P. Ethnographi of Yagua.N.Y., 1979. 129-b
4. ЭРКИН ВА ФАРОВОН, ДЕМОКРАТИК ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТИНИ БИРГАЛИКДА БАРПО ЭТАМИЗ Шавкат МИРЗИЁЕВ “ЎЗБЕКИСТОН” O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so`zlagan nutqidan
5. Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. 2021 йил 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамoат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилишидаги нутқи.
6. N.D.Qosimova O`smirlar ijtimoiylashuvida ibrat ijtimoiy psixologik xususiyatlarining ahamiyati. Diss..., T., 2010. 27-b

⁶ Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. 2021 йил 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан takomillashahtiresh, bu borada давлат ва жамoат tashkilotlariining ҳamkorligini kuchaytiresh masalalari bўyicha videoselektor yiғiliishi idagi nutqi. 19.01.2021 // https://uz.a.uz/posts/shavkat-mirziyoev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-varuhi-manaviyatdir_235451.